



## O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar

### vositasida rag'batlantirish yo'llari

**Ibragimov Aziz**

Osiyo xalqaro universiteti magistri

**Annotatsiya:** Infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarning jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

**Kalit so'zi:** radioelektron sanoat buyumlariyengil sanoatipakchilik sanoatiquirilish materiallari sanoatiparranda go'shti va tuxum yetishtirishhoziq-ovqat sanoatisut-go'sht mahsulotlari sanoatisolig'ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish.

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va bu xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarni bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o'rinbosarlaridan iborat bo'lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so'rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan



bir qatorda, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankining ko'magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta'kidlash muhim ahamiyatga ega. Xalqaro hakamlik sudlari institutining rivojlanishi ham faol qo'llab-quvvatlanmoqda. O'z navbatida, bu mamlakat investitsiya muhitining muhim va tizimli tashkil etuvchi tarkibiy qismi bo'lgan qonun ustuvorligi hamda davlat va mahalliy investorlar zimmasidagi majburiyatlarning to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, jahon amaliyoti va tajribasi shuni ko'rsatadiki, biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo'q. Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan muammolarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Birinchidan, iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarning jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda. Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarni to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda. To'rtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib



keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda. Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlari rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo'naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Xorijiy sarmoyadorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etilmoqda. O'zbekiston Respublikasidagi barcha korxonalar uchun belgilab qo'yilgan bojxona va soliq imtiyozlari bilan bir qatorda, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar jalb etayotgan quyidagi iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari uchun qator imtiyozlar mavjud:

- radioelektron sanoat buyumlari va kompyuter hamda hisoblash texnikalari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish;
- yengil sanoat;
- ipakchilik sanoati;
- qurilish materiallari sanoati;
- parranda go'shti va tuxum yetishtirish;
- oziq-ovqat sanoati;
- sut-go'sht mahsulotlari sanoati;
- kimyo-farmatsevtika sanoati.

Ushbu korxonalar asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mol-mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirishdan olinadigan soliq, ekologiya solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq, shuningdek, Respublika yo'l



fondiga majburiy to'lovlar to'lashdan ozod etiladi. Qayd etilgan soliq imtiyozlari to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy xorijiy sarmoyalar quyidagi hajmda jalb etilganda taqdim etiladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 mln dollargacha – 3 yil muddatga;
- 3 mln AQSh dollaridan 10 mln dollargacha – 5 yil muddatga;
- 10 mln AQSh dollaridan ortiq – 7 yil muddatga.

Bunda qayd etilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlarda taqdim etiladi:

- yuqorida qayd etilgan korxonalarni mehnat ko'p hududlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari, shuningdek, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari qishloq aholi punktlarida joylashtirish;
  - xorijiy sarmoyadorlar tomonidan shaxsiy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini taqdim etmagan holda amalga oshirish;
  - xorijiy ishtirokchilarning korxona Ustav kapitalidagi hissasi 50 foizdan kam bo'lmasligi kerak;
  - qayd etilgan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng shaxsiy to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar kiritish;
  - xorijiy sarmoyalarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna
- ushbu imtiyozlar taqdim etilishi natijasida olingan daromadni ulardan foydalanish muddati davomida korxonani yanada rivojlantirish uchun qayta sarmoya kiritishga yo'naltirish.



Respublikada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan birga investitsiyalarni jalb qilish bilan bog‘liq muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni hal qilish O‘zbekistonning yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ularni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- qo‘shma korxonalarning tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan faoliyatini jadallashtirish, valyuta oqimini barqarorlashtirish;
- investitsiyalar hududiy bir yoqlamalik xususiyatining oldini olish maqsadida yanada ko‘proq manfaatdorlik, moyillik yaratish;
- aholining bo‘sh pul mablag‘larini investitsiya jarayonlariga jalb qilish maqsadida qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish;
- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarining bir qismini tez qoplaydigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga qaratish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo‘lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni yanada kengaytirish;
- investitsiya loyihalarining sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo‘yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yurituvchi investitsiya loyihalari ko‘rgazmasini tashkil qilish;
- erkin iqtisodiy hududlarni yanada rivojlantirish, yetakchi mamlakatlarning bu yo‘nalishdagi amaliyotini o‘rganish va ularni joriy qilishga erishish;
- ayrim tarmoq va mintaqalarda xorijiy investorlar uchun real amal qilishi uchun qo‘shimcha imtiyozlar tizimini yaratish;



- xorijiy investitsiyalarni sugʻurtalashning samarali va zamonaviy mexanizmini yaratish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish boʻyicha tadbirlarni jadallashtirish

### Foydalangan adabiyotlar

1. Bazarova, M. "EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION". *Modern Science and Research*, vol. 2, no. 10, Nov. 2023, pp. 798-04,
2. Supievn, Bazarova Mamlakat, and Sakhibova Firuza. "STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS." *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY* 1.7 (2023): 22-25.
3. Supievn, Bazarova Mamlakat. "USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.6 (2023): 624-629.